

## O‘ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZMNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Zaxirova Gulnora Muxamadiyevna**

O‘zMU, Iqtisodiyot fakulteti katta o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0004-6086-9426

E-mail: [gulnora90930@gmail.com](mailto:gulnora90930@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda tibbiy turizmning rivojlanish tendensiyalari va uning mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilingan. Mamlakatda tibbiy xizmatlar sifati, tabiiy shifobaxsh resurslar, sanatoriy-kurort muassasalari va tibbiy infratuzilmaning rivojlanishi tibbiy turizmni kengaytirish uchun muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ayrim hududlarda tibbiy turizmning ixtisoslashuv yo‘nalishlari, hamda oxirgi yillardagi rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** tibbiy turizm, sanatoriy-kurort xizmatlari, sog‘lomlashtirish turizmi, mintaqaviy rivojlanish, tibbiy xizmatlar.

### Аннотация

В данной статье проанализированы тенденции развития медицинского туризма в Узбекистане и его региональные особенности. В стране качество медицинских услуг, природные целебные ресурсы, санаторно-курортные учреждения и развитие медицинской инфраструктуры являются важными факторами для расширения медицинского туризма. Кроме того, рассмотрены направления специализации медицинского туризма в отдельных регионах, а также тенденции его развития в последние годы.

**Ключевые слова:** медицинский туризм, санаторно-курортные услуги, оздоровительный туризм, региональное развитие, медицинские услуги.

### Abstract

This article analyzes the trends in the development of medical tourism in Uzbekistan and its regional characteristics. In the country, the quality of medical services, natural healing resources, sanatorium and resort facilities, and the development of medical infrastructure are important factors for expanding medical tourism. In addition, the article examines the areas of specialization of medical tourism in certain regions, as well as the trends in its development in recent years.

**Keywords:** medical tourism, sanatorium and resort services, wellness tourism, regional development, medical services

### KIRISH

Jahonda turizm sohasining tez sur‘atlarda rivojlanishi yangi turizm yo‘nalishlarining shakllanishiga olib kelmoqda. Shunday yo‘nalishlardan biri tibbiy turizm hisoblanadi. Tibbiy turizm insonlarning sog‘lig‘ini tiklash, diagnostika va davolanish maqsadida boshqa hudud yoki mamlakatlarga sayohat qilishini anglatadi.

Tibbiy turizm xalqaro turizm bozorining muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Ko‘plab davlatlar tibbiy xizmatlarni eksport qilish orqali iqtisodiy daromadni oshirishga intilmoqda. Bu jarayonda sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanganligi,

malakali tibbiy kadrlar, zamonaviy texnologiyalar va turizm infratuzilmasi muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Xorij davlatlarining qator olimlari tibbiy turizm, uning xususiyatlari va jahon iqtisodiyotida tutgan oʻrni boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan ingliz olimlari Nil Lant va Richard Smit<sup>1</sup>, Stiven Dj. Konnell<sup>2</sup>, David Xanter<sup>3</sup>, Amerikalik olimlar Djonatan Gudrich va Djon Gudrich<sup>4</sup>, nemis olimi V. Narshtedt<sup>5</sup>, David Xanefeld<sup>6</sup> oʻz tadqiqotlarida tibbiy turizm uning oʻziga xos tomonlari, rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillari boʻyicha oʻz yondashuvlarini bildirishgan.

Oʻzbekistonda ham tibbiy turizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmogʻda. Jumladan, Zamira Ashurova va Yongrok Choy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Oʻzbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, bozor mexanizmi va boshqaruv masalalari tahlil qilingan<sup>7</sup>. Nilufar Omonova esa mamlakat turizm strategiyasida tibbiy turizmning oʻrnini oʻrgangan<sup>8</sup>.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot asosan jahon miqyosidagi tibbiy turizm borasidagi statistik maʼlumotlarga asoslangan holda induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, jadval va grafik usullarini qoʻllash orqali amalga oshirilgan.

2025-yilda global tibbiy turizm bozori taxminan 38,2 mlrd AQSh dollarni tashkil qilgan<sup>9</sup>. Ayrim tahlillarga koʻra bozor hajmi 43,5 mlrd dollargacha baholanadi. Baʼzi keng qamrovli hisobotlarda 172 mlrd. dollarlik global xizmatlar aylanmasi ham qayd etilgan<sup>10</sup>.

2025-yilda Tailand, Hindiston, Turkiya, Malayziya, Janubiy Koreya, Singapur, Meksika, Braziliya eng koʻp tibbiy turist qabul qiladigan davlatlar qatoriga kirdi.

Bu davlatlar arzon narxlar va yuqori tibbiy xizmatlar sifati bilan mashhurdir<sup>11</sup>.

<sup>1</sup> Lunt, N., & Smith, R. (2011). Medical tourism: A global growth industry? *Health Policy*, 103(2-3), 91-95. Elsevier.

<sup>2</sup> Connell, J. (2006). Medical tourism: Sea, sun, sand and surgery *Tourism Management*, 27(6), 1093-1100. Elsevier.

<sup>3</sup> Hunter, D. J. (2010). The changing role of health services in a globalised world *Health Policy*, 95(2-3), 141-146. Elsevier.

<sup>4</sup> Goodrich, J. N., & Goodrich, G. E. (1987). Health-care tourism-An exploratory study. *Tourism Management*, 8(3), 217-222

<sup>5</sup> Nahrstedt, W. (2004). Wellness: A new perspective for leisure centers, health tourism, and spas in Europe on the global health market. In K. Weiermair & C. Mathies (Eds.), *The tourism and leisure industry: Shaping the future*. New York: Haworth Hospitality Press.

<sup>6</sup> Hanefeld, J., Smith, R., Horsfall, D., & Lunt, N. (2014). What do we know about medical tourism? A review of the literature with discussion of its implications for the UK National Health Service. *Globalization and Health*, 10(1), Article 15

<sup>7</sup> Yongrok Choi, Zamira Ashurova, Hyongsuk Lee. Sustainable Governance on the Intention of Medical Tourism in Uzbekistan. *Sustainability (MDPI)*, 2021, 13(12), 6915

<sup>8</sup> N.Omonova, N.Djurayeva. An Overview of Health Tourism within the Context of Uzbekistan's Tourism Strategy. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2021, 1(11), 754-759-p

<sup>9</sup> <https://www.fortunebusinessinsights.com/press-release/medical-tourism-market-10968>

<sup>10</sup> [https://www.imarcgroup.com/global-medical-tourism-market?utm\\_source](https://www.imarcgroup.com/global-medical-tourism-market?utm_source)

<sup>11</sup> [https://www.proficientmarketinsights.com/market-reports/medical-tourism-market-3480?utm\\_source](https://www.proficientmarketinsights.com/market-reports/medical-tourism-market-3480?utm_source)

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiy turizm - bu odamlarning tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida boshqa mamlakat yoki hududga sayohat qilish jarayonidir. U turizm va tibbiyot sohalarining integratsiyasini ta'minlaydi.

Tibbiy turizmning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

*Diagnostika turizmi* - sog'liqni tekshirish va tibbiy tekshiruvlar o'tkazish.

*Davolash turizmi* - turli kasalliklarni davolash.

*Reabilitatsiya turizmi* - operatsiya yoki kasallikdan keyin tiklanish.

*Sog'lomlashtirish turizmi* - profilaktika va organizmni mustahkamlash.

Tibbiy turizmning rivojlanishi quyidagi iqtisodiy afzalliklarni ta'minlaydi:

- turizm sohasida yangi ish o'rinlari yaratiladi;
- mamlakatga valyuta tushumlari oshadi;
- tibbiyot infratuzilmasi rivojlanadi;
- investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekistonda ham turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakatda tabiiy shifobaxsh resurslar, mineral suvlar, sanatoriy-kurort muassasalari va zamonaviy tibbiy markazlar mavjudligi tibbiy turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli tibbiy turizmni rivojlantirishda mamlakatning har bir hududining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Mamlakatda tibbiy turizmni rivojlantirish uchun quyidagi muhim omillar mavjud:

1. *Tabiiy shifobaxsh resurslar.* Mamlakatda mineral suvlar, shifobaxsh loylar va qulay iqlim sharoiti mavjud. Bu omillar sanatoriy-kurort turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

2. *Tibbiy infratuzilmaning rivojlanishi.* So'nggi yillarda respublikada zamonaviy tibbiy markazlar, xususi klinikalar va ixtisoslashgan tibbiy muassasalar soni ortib bormoqda.

3. *Davlat siyosati.* Turizm va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari tibbiy turizmni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

4. *Geografik joylashuv.* O'zbekiston Markaziy Osiyo markazida joylashgan bo'lib, qo'shni davlatlar uchun tibbiy xizmatlardan foydalanishda qulay hudud hisoblanadi.

2024-yilda O'zbekiston tibbiy turizm sektorida sezilarli o'sish kuzatildi, yanvardan iyulgacha bo'lgan davrda 74 700dan ortiq tibbiy turist tashrif buyurdi, bu o'tgan yilgi shu davrga nisbatan 83,6 % o'sishni tashkil etdi<sup>1</sup>.

Bu o'sish, ayniqsa Toshkentda arzon va yuqori sifatli tibbiy xizmatlar hamda 2024-yilda o'tkazilgan United Medical Tourism Expo ko'rgazmasi bilan takomillashdi. O'zbekiston bu bilan mintaqaviy eng muhim sog'liq xablaridan biriga aylanmoqda.

Quyida tibbiy xizmatlarning mamlakat hududlari bo'yicha tahlil keltiriladi.

<sup>1</sup> [https://kun.uz/en/30882376?utm\\_source](https://kun.uz/en/30882376?utm_source)

*Toshkent shahri.* Toshkent mamlakatning asosiy tibbiy markazi hisoblanadi. Bu yerda yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi klinikalar, ilmiy tibbiy markazlar va xususiy tibbiy muassasalar joylashgan. Toshkent - O'zbekistondagi eng yirik tibbiy xizmat markazi sifatida namoyon bo'ladi. Xizmatlarning taxminan 45-50% aynan shu yerda ko'rsatiladi.

Bu hududda quyidagi xizmatlar rivojlangan:

- kardiologiya;
- neyroxirurgiya;
- stomatologiya;
- estetik tibbiyot;
- yuqori aniqlikdagi diagnostika.

Shu sababli Toshkent tibbiy turizmning asosiy markazi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda poytaxtning ustun jihatlari:

MRI, KT, angiografiya, gemodializ kabi xizmatlar darajasining yuqoriligi;

Mutaxassislar soni yuqoriligi, ya'ni 10000 dan ortiq shifokor va 20000 mingdan ortiq o'rta tibbiyot xodimlari jamlanganligi;

“Artel Med”, “Akfa Medline”, “Human Klinik”, “Doctor D” kabi xalqaro tibbiyot tarmoqlari ulushi yuqoriligi;

Tibbiy turizmning 70% Toshkent hissasiga to'g'ri keladi.

*Samarqand viloyati.* Samarqand turizm markazlaridan biri bo'lib, bu yerda tibbiy turizm madaniy turizm bilan uyg'un holda rivojlanmoqda. Hududda sanatoriylar va sog'lomlashtirish markazlari mavjud. Tibbiy turizm uchun eng qulay hududlardan biri hisoblanadi. 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra mazkur hududda 900 dan ortiq xususiy klinikalar shakllangan, yurak-qon tomir operatsiyalari bo'yicha 3 ta ixtisoslashgan markaz yaratilgan. 2023-yilda Samarqandga kelgan tibbiy turistlar soni 10 mingdan oshgan.

Bu yerda asosan:

- reabilitatsiya xizmatlari;
- sanatoriy-kurort xizmatlari;
- sog'lomlashtirish turizmi rivojlangan.

*Farg'ona vodiysi.* Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida mineral suv manbalari va sog'lomlashtirish maskanlari mavjud.

Bu hududda:

- mineral suvlar bilan davolash;
- fizioterapiya;
- sanatoriy xizmatlari keng tarqalgan.

Andijon viloyati O'zbekistonda Majburiy tibbiy sug'urta (MTS) tizimi sinov o'tkazilayotgan birinchi viloyat hisoblanadi.

Asosiy jihatlari:

- 2023-2024 yillarda 1 mln dan ortiq shaxs MTS tizimiga kiritildi;
- Xususiy klinikalarda xizmat sifati keskin oshgan;

– Davlat poliklinikalari raqamlashtirilgan. Masalan, Andijonda onlayn navbat tizimi joriy etilganligi sababli poliklinika navbatlari 2021-yilga nisbatan 2024-yilda 35-40% kamaygan.

Farg‘ona viloyati ham tibbiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Hududda 600 dar ortiq klinikalar, 120 dan ortiq diagnostika markazlari mijozlarga xizmat ko‘rsatmoqda. Viloyatda reabilitatsiya markazlari eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir.

Namangan viloyati aholisi zichligi yuqori bo‘lgan hudud bo‘lganligi sababli diagnostika va pediatriya xizmatlariga talab ortib bormoqda. Viloyatda 500 ga yaqin xususiy klinikalar shakllantirilgan, har yili 20-25 ta yangi stomatologik xizmatlar ko‘rsatuvchi klinikalar tashkil qilinmoqda.

*Jizzax viloyati.* Jizzax viloyatida tabiiy iqlim sharoiti va tog‘ hududlari sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Yuqori texnologiyali klinikalar soni kam, ammo investitsiya oqimi ortishi kuzatilmoqda. Masalan, 2024-yilda viloyat bo‘yicha 5 ta yangi laboratoriya zanjiri ochildi.

Bu yerda sanatoriy-kurort xizmatlarini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud.

*Buxoro viloyati.* Buxoro asosan madaniy turizm markazi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bu yerda ham sog‘lomlashtirish xizmatlari va sanatoriy muassasalari mavjud. Tibbiy turizm madaniy turizm bilan birgalikda rivojlanmoqda.

### 1-jadval.

#### O‘zbekiston hududlarida tibbiy turizm yo‘nalishlari<sup>1</sup>

Hudud	Tibbiy turizm yo‘nalishi	Asosiy imkoniyatlar
Toshkent shahri	Yuqori texnologiyali davolash	Zamonaviy klinikalar, diagnostika markazlari
Samarqand viloyati	Reabilitatsiya va sog‘lomlashtirish	Sanatoriylar, turistik infratuzilma
Farg‘ona vodiysi	Sanatoriy-kurort turizmi	Mineral suvlar, tabiiy resurslar
Jizzax viloyati	Iqlimiy sog‘lomlashtirish	Tog‘ hududlari, tabiiy sharoit
Buxoro viloyati	Madaniy va tibbiy turizm	Sog‘lomlashtirish markazlari

O‘zbekistonda tibbiy turizm rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatmoqda:

- zamonaviy tibbiy texnologiyalarning joriy etilishi;
- xususiy tibbiyot markazlarining ko‘payishi;
- transport va turizm infratuzilmasining rivojlanishi;
- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosati;
- tabiiy shifobaxsh resurslarning mavjudligi.

O‘zbekistonda 2024-yilda tibbiy turistlar soni o‘tgan yilga nisbatan 77%dan ortiq o‘sdi, bu sektorning jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bemorlarning ko‘pchiligi Tojikistondan (51 mingdan ortiq), Qozog‘istondan (7 mingdan ortiq) va

<sup>1</sup> Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Qirg'izistondan (6 mingdan ortiq) kelgan iste'molchilar ulushiga to'g'ri keladi<sup>1</sup>. Tashrif buyurgan bemorlar asosan Toshkent shahridagi diagnostika, stomatologiya, xirurgiyaga ixtisoslashgan klinikalardan tibbiy xizmatlardan foydalanishgan. 2024-yilda Toshkentda o'tkazilgan United Medical Tourism Expo sanoat yetakchilarini birlashtirib, sog'liqni saqlash sohasidagi ilg'or yo'nalishlarni taqdim qilinishi xalqaro tibbiy turizmni rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

O'zbekiston 2024-yilda Markaziy Osiyoda eng yaxshi sog'liqni saqlash tizimiga ega davlat sifatida e'tirof etildi va dunyoda 64-o'rinni egalladi<sup>2</sup>. Tibbiy turizmning kengayishi infratuzilma rivojlanishiga ham hissa qo'shib, transport infratuzilmasi va xususiy klinikalar sonining oshishiga o'z ta'siri ko'rsatdi.

2025-yil xalqaro turizmida yangi rekordning qayd etilishini kuzatish mumkin, bunda safarlar soni 1,52 milliardga yetdi va bu 2024-yilga nisbatan 4% o'sishni tashkil etdi<sup>3</sup>. Bu holat, ayniqsa, ixtisoslashgan segmentlar, xususan tibbiy turizm va sog'lomlashtirish xizmatlarida barqaror o'sishni ko'rsatdi.

O'zbekiston 2025-yilda 86 199 nafar xorijiy bemorni qabul qilib, Markaziy Osiyoda yetakchi tibbiy xab sifatida e'tirof etildi. Bu natija sog'liqni saqlash sifati yaxshilanishi, ixtisoslashgan klinikalar va rehabilitatsiya xizmatlari rivojlanishi bilan bog'liqdir<sup>4</sup>.

«Dunyo» ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonda tibbiy maqsadda kelgan 86 mingdan ortiq bemorning asosiy qismi Markaziy Osiyo davlatlari ulushiga to'g'ri keladi.<sup>5</sup>

## 2-jadval.

### O'zbekistonga tashrif buyurgan bemorlar ulushi (2025-yil)<sup>6</sup>

Davlat	Bemorlar soni	Ulush, foizda
Tojikiston	59145	69
Qirg'iziston	15631	18
Qozog'iston	8224	9
Rossiya	2100	2,1
Boshqa davlatlar	1099	1,9

Rossiya va Afg'onistondan keluvchi bemorlar soni ham sekin-asta o'smoqda. Xorijdan tashrif buyuruvchi mijozlar soni ko'payishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

*Sifatli tibbiy xizmat:* klinikalarda yuqori texnologiyali davolash imkoniyatlari kengaymoqda.

<sup>1</sup> <https://kun.uz/en/news/2024/09/26/over-74-thousand-foreign-nationals-visited-uzbekistan-for-medical-treatment-in-eight-months?utm>

<sup>2</sup> [https://caspianpost.com/uzbekistan/uzbekistan-ranked-best-in-central-asia-for-healthcare-in-2024-index?utm\\_source=](https://caspianpost.com/uzbekistan/uzbekistan-ranked-best-in-central-asia-for-healthcare-in-2024-index?utm_source=)

<sup>3</sup> [https://news.gtp.gr/2026/01/21/un-tourism-1-52-billion-international-tourists-in-2025-as-global-travel-normalizes/?utm\\_source=](https://news.gtp.gr/2026/01/21/un-tourism-1-52-billion-international-tourists-in-2025-as-global-travel-normalizes/?utm_source=)

<sup>4</sup> <https://kun.uz/en/news/2024/09/26/over-74-thousand-foreign-nationals-visited-uzbekistan-for-medical-treatment-in-eight-months?utm>

<sup>5</sup> [https://dunyo.info/undefined/v-2025-godu-bolee-86-tysyach-inostrancev-vybrali-uzbekistan-dlya-lecheniya?utm\\_source=](https://dunyo.info/undefined/v-2025-godu-bolee-86-tysyach-inostrancev-vybrali-uzbekistan-dlya-lecheniya?utm_source=)

<sup>6</sup> Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

*Ixtisoslashgan klinikalar:* kardiologiya, reproduktiv tibbiyot va reabilitatsiya sohalari rivojlanmoqda.

*Reabilitatsiya xizmatlari:* turizm bilan uyg'unlashtirilgan sog'lomlashtirish dasturlari kengaymoqda.

*Mintaqaviy jozibadorlik va narx-sifat balansi:* O'zbekiston qo'shni davlatlar uchun raqobatbardosh va arzon tibbiy xizmatni taklif qilmoqda.

Bunda tibbiy turistlarning asosiy qismi stomatologiya yo'nalishi bo'yicha xizmatlar iste'molchilari hisoblanadi.

**3-jadval.**

**Tibbiy turistlar tomonidan eng ko'p talab qilinadigan tibbiy xizmatlar<sup>1</sup>**


Xizmat turi	Ulush, foizda
Stomatologiya	35
Plastik xirurgiya	25
Kardiologiya	15
Reproduktiv tibbiyot	15
Boshqa xizmatlar	10

2025-yilda tibbiy turizm O'zbekiston uchun strategik jihatdan muhim bo'ldi. Bunda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim:

O'zbekiston Markaziy Osiyoda yetakchi tibbiy turizm markazi sifatida shakllandi;

86 mingdan ortiq xorijiy bemorning kelishi mintaqaviy xab modelining samaradorligini ko'rsatmoqda;

sifatli xizmatlar, ixtisoslashgan klinikalar va reabilitatsiya dasturlari bozorni rivojlantiruvchi asosiy omillar bo'ldi.



**1-rasm. O'zbekistonga tashrif buyurgan tibbiy turistlar soni<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Shu bilan birga, kelgusida bozor diversifikatsiyasi va xalqaro standartlar joriy etilishi O‘zbekistonning tibbiy turizm sektorini global miqyosda raqobatbardosh qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ko‘rsatilgan yutuqlar bilan birgalikda mamlakatimizda tibbiy turizmni yanada rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan:

- xalqaro darajada reklamaning yetarli emasligi;
- tibbiy turizm bo‘yicha maxsus turpaketlar kamligi;
- ayrim hududlarda infratuzilma rivojlanmaganligi;
- xalqaro akkreditatsiyaga ega klinikalar soni kamligi sohani yanada rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Tibbiy turizmni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- xalqaro standartlarga mos tibbiy markazlar tashkil etish;
- tibbiy turizmni targ‘ib qilish;
- sanatoriy-kurort muassasalarini modernizatsiya qilish;
- xorijiy investorlarni jalb qilish;
- tibbiy turizm bo‘yicha maxsus turpaketlar yaratish.

Xalqaro turizm tashkiloti (UNWTO) mamlakatlarda tibbiy turizmni rivojlantirish, sayohat va salomatlik sohasini birlashtirishni boshqarish uchun quyidagilarni tavsiya qiladi:

- ma‘lumotlarni sifatli yig‘ish va tahlil qilish;
- standartlashtirilgan atamalardan foydalanish;
- amaliy boshqaruv “toolkit”( asboblar to‘plami yoki biror ishni bajarish uchun kerakli vositalar majmuasi) larini joriy etish.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekistonda tibbiy turizm barqaror rivojlanish bosqichiga kirganini ko‘rsatdi. Mamlakat hududlari tabiiy shifobaxsh resurslar, zamonaviy tibbiy infratuzilma va ixtisoslashgan xizmatlar bilan farqlanadi. Ayniqsa, Toshkent shahri yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar markazi sifatida shakllangan bo‘lsa, Samarqand, Farg‘ona vodiysi va boshqa hududlar sog‘lomlashtirish hamda rehabilitatsiya xizmatlariga ixtisoslashgan.

Tahlillar tibbiy turizmning rivojlanishi sog‘liqni saqlash tizimi modernizatsiyasi, xususiy sektor faolligi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, xizmatlar sifati va narxlar muvozanati O‘zbekistonni mintaqaviy darajada raqobatbardosh yo‘nalish sifatida shakllantirmoqda.

Kelgusida sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- xalqaro akkreditatsiyaga ega tibbiy muassasalar sonini oshirish;
- tibbiy turizmni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishni kuchaytirish;
- hududlar kesimida ixtisoslashgan turpaketlar ishlab chiqish;
- sanatoriy-kurort infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

– raqamli xizmatlar va onlayn tibbiy platformalarni keng joriy etish.

Mazkur chora-tadbirlar tibbiy turizmni diversifikatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va O‘zbekistonning xalqaro turizm bozorida o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi materiallari.
3. Smith, M., Puczko, L. Health and Wellness Tourism. Amsterdam: Butterworth-Heinemann (Elsevier), 2009. - 400 p
4. Bookman, M. Z., Bookman, K. R. Medical Tourism in Developing Countries. New York: Palgrave Macmillan, 2007. - 256 p
5. Hall, C. M. Medical Tourism: The Ethics, Regulation and Marketing. Abingdon: Routledge, 2011. - 208 p.
6. <https://www.fortunebusinessinsights.com/press-release/medical-tourism-market-10968>
7. Муминов Н.Г. Перспективы развития государственного управления в сфере туризма в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан), 2022 г, №5, С.2-10.
8. Муминов Н.Г., Қодирзода Ф.С., Гусейнов Х.Ф., Хубони Сорбон. Особенности развития туризма в условиях изменения климата: сезонность и минимизация его негативного влияния. “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali. 2025-yil, oktabr, 10-son. С.14-20
9. Муминов Н.Г. Международный туризм: проблемы и перспективы. Международная коллективная монография / под общей редакцией Муминова Н.Г. - Ташкент: «Alfraganus University», 2026. 405 стр.
10. Axmadovich X. Z. HUDUDLARNING IJTIMOIIY TABAQALASHUV DARAJASINI VAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. - 2024. - Т. 4. - №. 09. - С. 415-424.
11. [https://www.imarcgroup.com/global-medical-tourism-market?utm\\_source](https://www.imarcgroup.com/global-medical-tourism-market?utm_source)
12. [https://www.proficientmarketinsights.com/market-reports/medical-tourism-market-3480?utm\\_source](https://www.proficientmarketinsights.com/market-reports/medical-tourism-market-3480?utm_source)
13. [https://kun.uz/en/30882376?utm\\_source](https://kun.uz/en/30882376?utm_source)
14. <https://kun.uz/en/news/2024/09/26/over-74-thousand-foreign-nationals-visited-uzbekistan-for-medical-treatment-in-eight-months?utm>
15. [https://caspianpost.com/uzbekistan/uzbekistan-ranked-best-in-central-asia-for-healthcare-in-2024-index?utm\\_source=](https://caspianpost.com/uzbekistan/uzbekistan-ranked-best-in-central-asia-for-healthcare-in-2024-index?utm_source=)
16. [https://news.gtp.gr/2026/01/21/un-tourism-1-52-billion-international-tourists-in-2025-as-global-travel-normalizes/?utm\\_source=](https://news.gtp.gr/2026/01/21/un-tourism-1-52-billion-international-tourists-in-2025-as-global-travel-normalizes/?utm_source=)
17. <https://kun.uz/en/news/2024/09/26/over-74-thousand-foreign-nationals-visited-uzbekistan-for-medical-treatment-in-eight-months?utm>
18. [https://dunyo.info/undefined/v-2025-godu-bolee-86-tysyach-inostrancev-vybrali-uzbekistan-dlya-lecheniya?utm\\_source=](https://dunyo.info/undefined/v-2025-godu-bolee-86-tysyach-inostrancev-vybrali-uzbekistan-dlya-lecheniya?utm_source=)



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**